

Inson aziz, xotira muqaddas!

Har yili 9-may “Xotira va qadrlash kuni” umumxalq bayrami sifatida nishonlanadi va buning zamirida o’zbek xalqining tinchligi, farovonligi yo’lida o’z jonini fido qilgan mard, dovyurak farzandlari xotirasiga hurmat ko’rsatish, bugungi tinch-totuv hayotimizga shukrona keltirish va tinchlikning qadriga yetishdek ezgu maqsadlar yotibdi.

Ushbu qutlug’ kun munosabati bilan barcha vatandoshlarimizni O’zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi nomidan muborakbod etamiz! Yurtimiz tinch, osmonimiz musaffo, mustaqilligimiz abadiy bo’lsin!

O’zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi jamoasi.